Bank Boshqaruvining
2026-yil "6"- noyabrdagi
76/1 - sonli qaroriga
2 -sonli ilova

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	**Mikroqarz "Garov"**
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 23 yoshga to'lgan O'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar.
Mikroqarz valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm
Mikroqarz miqdori	100.0 mln.so'mgacha
Mikroqarz maqsadi	Maqsadsiz
Mikroqarz muddati	Imtiyozli davrsiz, 60 oy muddatgacha
Taqdim etish shakli	Qarz oluvchining «Asia Alliance Bank» ATBda ochilgan so'm plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali
Foiz stavkasi	• 12 oy muddatgacha – 21,0 %; • 24 oy muddatgacha – 23,0 %; • 36 oy muddatgacha – 25,0 %; • 60 oy muddatgacha – 26,0 %.
Mikroqarz ta'minoti	• Mikroqarz miqdorining 125 foizidan kam bo'lmagan miqdorda bank talablariga muvofiq keladigan likvidli mol-mulk garovi. • Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan mikroqarz bo'yicha ta'minot mikroqarzning 130 foizidan kam bo'lmasligi lozim.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); B) O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma (ro'yxatdan o'tganiga 6 oydan oshmagan bo'lishi lozim); C) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar; D) Mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to'g'risidagi hisoboti; E) Bankning kredit menejeri (mas'ul xodimlari) tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto suratlari bilan.
Mikroqarzni qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida.

Qo'shimcha shartlar	• Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim; • Qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichi 8 barobardan oshmasligi lozim; • Muddati o'tgan asosiy qarz uchun oshirilgan foiz stavkasi kredit bo'yicha foiz stavkasining 1,5 barobarida belgilanadi; • MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi • Kredit byurolaridan olingan kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda: so'nggi 3 yil muddatda: - 60+ 3 tagacha yo'l qo'yiladi; so'nggi 1 yil muddatdagi kredit tarixi: - 30+ 2 tagacha yo'l qo'yiladi; • Ko'chmas mulklar o'rnatilgan tartibda bank talablariga javob bergan taqdirda, kredit ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin; • Kredit ta'minoti sifatida garovga ko'chmas mulk qabul qilinganda, ushbu mulk qarz oluvchi yoki uning yaqin qarindoshiga tegishli bo'lishi lozim; • Kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yuvchining yagona uy-joyi garovga olingan taqdirda, mazkur Boshqaruv qaroriga ilova qilingan yagona turar joyni garovga qo'yish oqibatlari to'g'risida tushuntirish matni garovga qo'yuvchiga tanishtirilishi va imzolanishi lozim; • Kredit 12 oy muddatga ajratilganda, ta'minot sifatida ko'chmas mulk qabul qilinmaydi; • Kredit tashkilotlarida o'rtacha oylik to'lovi 5.0 mln.so'mdan oshgan joriy kredit qarzdorligi mavjud bo'lmasligi lozim *(daromadlarini, hisob raqam aylanmalarini yoki nomida mol-mulk mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan hollar bundan mustasno).*